

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TALABA VA O'QUVCHILARNING
MA'NAVIY YUKSALISHIGA KO'MAKLASHISH MARKAZI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI
YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI TOSHKENT SHAHAR BOSHQARMASI**

**O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI
TOSHKENT SHAHAR HUDUDIIY KENGASHI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI HUZURIDAGI
O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO'YICHA
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSIYALAR, SAVDO VA SANOAT
VAZIRLIGI O'ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI
RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR KENGASHI**

“SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI”

**mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy
konferensiya to'plami**

2023-yil 20-aprel

Nigmatova M., Erkinova E. Maktabgacha ta'lim tizimida stem texnologiyalarini qo'llash va uning avzalliklari.....	680
Nizomiddinova D. Bolalarga she'riy usulda ingliz tilini o'rgatish.....	684
Nizomova Sh., Ubaydullayeva P. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yinning bola hayotidagi ahamiyati.....	686
Nizomova Sh., Fayzullayeva Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarga badiiy adabiyot bilan ishlashni o'rgatish.....	689
Nishonov S. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – jamiyat taraqqiyotining muhim omili.....	691
Niyazova D., Ergasheva G. Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda pedagogik-psixologik yondashuv.....	695
Norqobilova S. Giperfaollik diqqat tanqisligi sindromli yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonlarida do'stlik ko'nikmalarining shakllanishi.....	697
Normamatov F. Ingliz lisoniy tasvirida “yaxshilik” konsepti	700
Nortoyeva Z., Oxunov R. Tabiiy ofat zilzila va uning oqibatlarini kamaytirish chora-tadbirlari.....	706
No'monjonov M. Dori vositalarining rivojlanish tarixi va farmakologik xususiyatlari.....	710
Numanova M. Сифатли таълим – инсон капиталини ривожлантирувчи драйвер.....	713
Nuraliyev D., Taylanov N. Technologies aimed to activate educational activities in the field of computer science.....	717
Nuralieva N. Tibbiy ta'limning bugungi kuni.....	720
Nuriddinova M. Sifatli ta'lim – jamiyat taraqqiyotining poydevori.....	723
Nurmatova S. Oq rang talqini haqida.....	726
Nurullayeva O. Asab tizimi shkastlangan bolalarni ta'lim bilan qamrab olish, parvarish qilish va jamiyatga moslashtirish.....	730
Obbosxonov A. Ta'lim va tarbiyaning yoshlar huquqiy-madaniyatini yuksaltirishda o'rni.....	733
Obidova N. Nazar Eshonqul hikoyalarining qiyosiy tahlili.....	737
Odiljonov K. Description of molecular-genetic processes in animals.....	739
Одинаева М., Ёмғиров Ш. Требования современности в воспитание молодежи на уровне духовной зрелости и совершенства.....	741
Орипов Ф. Жамиятда ёшлар экологик маданиятини шакллантиришнинг генезиси ва ижтимоий аспекти.....	744
Останов Ш. Психологияда креативлик масаласи.....	749
Ostonova Sh. Boshlang'ich sinflarda matematik atamalarni ingliz tilida o'rgatish orqali o'quvchilar savodxonligini oshirish metodikasi.....	753
Отабекова Н. Яшил иқтисодиётни такомиллаштириш асослари	756
Ochilov S., Mirzailyosov T. Korrupsiyaga qarshi kurashishda yoshlarning o'rni.....	764

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUV

Niyazova S.D.

Buxoro davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Ergasheva G.B.

Buxoro davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2021-yil 6-apreldagi PQ-5054-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko'ra, davlat ta'lim standartlari hamda kasbga doir bilim va ko'nikmalarga qo'yilgan talablar asosida mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda, kasbiy ma'lumotga ega bo'lmagan sport ta'lim muassasalari xodimlari uchun qo'shimcha ixtisoslik bo'yicha pulli asosda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish; jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni kasbiy, ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirish, sport ta'lim tizimini ilmiy-metodik ta'minlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish; o'quv-mashg'ulot jarayoniga, xususan, sport ta'lim muassasalari amaliyotiga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning samarali shakllari va usullarini joriy etish; sport ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirish, o'z filiallari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish; xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, konferensiyalar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlar o'tkazish orqali jismoniy tarbiya va sport sohasida mamlakatimiz yutuqlarini xalqaro darajada keng yoritish, xorijiy sport ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish masalasi ustivor vazifa sanaladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda sportning muhim o'rnini borligi bugungi kunda teran anglanmoqda. Ta'kidlash joizki, yoshligidan sport bilan shug'ullangan shaxsni yoshi ulg'ayganda ham hayotining 70-75 foizini sport bilan shug'ullanish tashkil qilmoqda. Har bir shaxsni barkamol qilib tarbiyalashda sportning alohida o'rnini bor. Sportning yoshlar o'rtasida o'z o'rnini bor ekan, unda sport pedagogikasi tarbiya jarayonining bir qismi bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi –sportchi tarbiyaviy jarayoning asosiy vazifasi har bir shaxs sportda o'z o'rnini topish, sport uning bir a'zosi kabi deb his qilishini tarbiyalashdan iborat.

Prezidentimizning 2002-yil 24-oktabrdagi "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi farmoni sportga e'tiborni yanada kuchaytirdi.

Farmon e'lon qilingach, bolalar sporti yanada ommaviylashib, yoshlar orasidan ko'plab iqtidorli sportchilar yetishib chiqa boshladi.

Sportda muvoffaqiyatlarga erishish o'zidan-o'zi bo'lmaydi, albatta. Buning uchun temirdek iroda va intizom, tinimsiz mehnat qilish kerak bo'ladi. Buni esa yoshlikdan tarbiyalash zarur.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, yurtimiz mustaqilligi tufayli yosh avlodni kelajagi yo'lida sog'lom va barkamol avlodning voyaga yetishida zamonaviy sport inshootlari qad ko'tarib, yoshlarimizni sport sohasida dunyoga tanitishda xizmat qilib kelmoqda.

Bugungi kunda yurboshimizni "Bolalar sportni rivojlantirish" borasidagi e'tiborlari benihoyat cheksizdir. Yosh avlodni komil inson bo'lib yetishi uchun barcha shart-sharoit mavjud. Ana shu imkoniyatlardan foydalanib, o'z iste'dod va salohiyatini namoyon etishga intilayotgan o'g'il-qizlarimiz Prezidentimiz tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani uch bosqichli tizim - "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiyada" sport o'yinlari yosh iqtidor sohiblarini kashf qilishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada Buxoro shahrida yaqinda o'tkazilishi ko'zda tutilgan "Universiyada" sport o'yinlari barcha sportchi yoshlarni o'z bag'riga olib, yangidan-yangi chempion va g'olib sovrindorlarni aniqlaydi.

Shunday sovrindor yoshlarni, sportchilarni kashf etish, hamda tayyorlash maqsadida sharif shahrimiz Buxoroda amalga oshirish borasida tayyorgarlik ko'rilmogda.

Yildan-yilga yanada navqiron va go'zallashib borayotgan qadimiy va hamisha navqiron shahrimizda barchani havasini keltirayotgan yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar, ijtimoiy infratuzilma obyektlari, turar joy binolari qatorida bir-biridan ajoyib sport majmualari, yosh iste'dodli futbolchilarimiz uchun futbol maydonlari, suzish havzalari, maxsus sport maktablarining borligi yurtimiz kelajagi bo'lmish yoshlarimiz maqsadi yo'lida xizmat qilayapti. Zomon talablariga mos tarzda bunyod etilayotgan shu kabi sport-sog'lomlashtirish maskanlarida boks, qilichbozlik, suzish, tennis, badiiy gimnastika kabi ommaviy sport turlari bilan minglab yoshlarimiz shug'ullanayotganligi - amalga oshirilgan ezgu ishlarning yorqin ifodasidir.

Bu kabi sport musobaqalarida ishtirok etish har bir sportchi faoliyatidagi eng katta yutuq hisoblanadi. Tabiiyki, bunga o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi. Buning uchun, avvalo, ishtiyoqi baland iste'dodli yoshlarni tarbiyalash hamda qo'llab-quvvatlash lozim. Ana shunday iste'dodlarni tayyolashda, albatta, "Olimpiya zahiralari" sport maktablarining o'rni benihoyat katta. Yaratilayotgan bunday imkoniyatlar va yuksak g'amxo'rlik bugun respublikamizda sport bilan muntazam shug'ullanadigan bolalar soni bundan 15-20 yil oldin taqqoslanganda bir necha marta oshadi. Ayniqsa, ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar olimpiya sport maktablarida shug'ullanadigan bolalarning soni 1 million 600 ming nafarga yetdi.

Sportning bu qadar ommalashuvida, yoshlarimiz erishayotgan muvaffaqiyatlarga yurtimizda tashkil etilgan “uch bosqichli” sport musobaqalarining o’rni beqiyos deb bilamiz.

Binobarin, qayerdagi e’tibor bo’lsa, o’sha yerda muvaffaqiyatlar ko’zga tashlanadi. Ayniqsa, sport mashg’ulotlariga malakali murabbiylar jalb etilayotganligi, sport seksiyalarida mashg’ulotlar bugungi talablar asosida olib borilayotgani sari yutuqlar garovi bo’lyapti. Har bir murabbiy o’z kasbini hurmat qilib, uni chin dildan his qilib o’z shogirdi istiqboli yo’lida tinmay izlanib, shug’ullanarkan u albatta mehnati samarasiga erishadi.

Bizlardan nom qoladi, g’urur ham shon qoladi,
Ozod, obod bir Vatan, bog’u bo’ston qoladi.

Demak, hali oldimizda yanada ulkan-ulkan maqsadlar turibdi. Shunday ekan o’smirlar olimpiya zaharalari va sport maktablarimiz kelgusida bo’lajak jahon chempionlarini yetishtirish hamda tarbiyalash, ularni qo’llab-quvvatlash va rag’batlantirish borasida yanada faollashib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. И.Азимов “Физиология человека”, Ташкент - 1991 - yil.
2. Г.Азимов “sport to’garaklari fiziologiyasi”, Toshkent - 1993 - yil. Брехман И.И. Валеология наука о здоровье, Москва - 1990. 2.Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O’qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo’llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008, 3-48 bet.
3. O’zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. “O’zbekiston”, Toshkent, 1997 yil. 731
4. <http://www.yoshlarittifoqi.uz/uz/news/jismoniy-tarbiya-va-sport-sohasi-irivojlantirish-masalalarining-muhokamasi>
5. <http://sovminrk.gov.uz/uz/news/show/5315>
6. <http://lex.uz>. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni

GIPERFAOLLIK DIQQAT TANQISLIGI SINDROMLI YOSHLARNING IJTIMOYLAHV JARAYONLARIDA DO’STLIK KO’NIKMALARINING SHAKLLANISHI

Norqobilova Surayyo G’ulom qizi

Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasida 1-kurs doktoranti

Giperfaollik diqqat tanqisligi sindromida tengdoshlar bilan munosabatlarga oid ko’pgina tadqiqotlar tengdoshlarni rad etish va ijtimoiy ko’nikmalardagi kamchiliklarga qaratilgan, ammo bu omillar do’stlikni alohida tuzilmalar sifatida ajratish zarur ekanidan dalolat beradi. Tengdoshlarini iliq qabul qilish natijasida